

Nutqida nuqsoni bor bolalarning psixologiyasi

Dilfuza Akmaljon qizi Abdurashidova

Ilmiy rahbar: D.Oribboyeva

abdurashidovadilfuza4@gmail.com

NamDPI

Annotatsiya: Ushbu maqola jamiyatdagi nuqsonli bolalarning rivojlanishdagi kamchiliklari va ularning psixologiyasi, nutqida nuqsoni bo'lgan, aqli zaif bolalarga jamiyatning munosabati va bolalar rivojlanishiga atrof muhitning ta'siri haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: nutq terapiyasi, tiflopedagogika, oligofreniya pedagogikasi, karpedagogika, nutq, fonetik-fonemik, differensial, akustik, artikulyatsiya

Psychology of children with speech impairment

Dilfuza Akmaljon kizi Abdurashidova

Scientific supervisor: D.Oribboyeva

abdurashidovadilfuza4@gmail.com

NamSPI

Abstract: This article describes the developmental disabilities and psychology of children with disabilities in society, the attitude of society towards children with speech disorders and mental retardation, and the influence of the environment on children's development.

Keywords: speechtherapy, typhlopedagogy, oligophrenic, pedagogy, deaf pedagogy, speech, phonetic-phonematic, differential, acoustic, articulation

Barcha tirik organizmlar va shu jumladan odamlar ham o'sib rivojlanish xususiyatiga ega. O'sish bu - miqdor jihatdan ortish. Rivojlanish esa sifat jihatdan o'zgarishidir. Ulg'ayib borar ekanmiz aqlimiz, ongimiz va albatta nutqimiz ham rivojlanadi. Nutq insonlar bilan muloqotni tamirlashda va jamiyat bilan a'loqa bog'lashdagi muhim jarayon hisoblanadi. Nutqimiz nafaqat muloqotda balkim, bizni jamiyatga bog'lab turuvchi vositadir. Nutqning nuqsonli bo'lishi esa kasallik hisoblanadi. Hozirgi dolzarb rivojlanib borayotgan zamonamizda nuqsonli bolalar soni ortib borayotganini ko'ryapmiz, nuqsonlar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi ya'ni turli organlarda, nutq a'zolarida, ko'rish a'zolarida uchraydi.

Barcha ota-onalar farzandlarini sogʻlom dunyoga kelishini istaydi, biroq, ayrim sabablar, tashqi omillar yokida turli dori vositalarining nojoʻya taʼsiri tufayli dunyoga kelayotgan farzandlari nuqsonli boʻlib tugʻilmoqda. Bolalardagi nuqsonlar nafaqat tashqi koʻrinishda namoyon boʻlib qolmay, uning ruhiy holatlarida ham kuzatiladi. Unday bolalarning psixologiyasi sogʻlom bolalar psixologiyasiga qaraganda anchagina farq qiladi. Sogʻlom bolalar tabiat hodisalarini, insonlar bilan boʻlayotgan muloqot jarayonlaridagi tortishuvlarni toʻgʻri qabul qiladi va bu holatga sokinlik bilan oʻz fikrini bildiradi. Lekin aqliy nuqsoni bor bolalar uchun bu holat juda ham qoʻrqinchli boʻlishi yokida bunday jarayonda ular oʻzlarini yoʻqotib ham qoʻyishlari mumkin. Aqli zaif bolalar oʻtgan yillarga nisbatan hozir koʻp uchramoqda, buning sabablaridan ayollar homiladorlik vaqtlarida turli xil himikatli ichimliklar, tez tayyorlanadigan taomlar isteʼmol qilishayotgani va oʻrinsiz narsalar uchun depressiyaga yaʼni stress holatlariga tushayotgani sabab boʻlmoqda. Nuqsonning bir nechta turlari va ularni oʻrganuvchi fan sohalari mavjud boʻlib ular:

1. Logopediya
2. Tiflopedagogika
3. Oligofrenopedagogika
4. Surdopedagogika

Logopediya bu - nutqida nuqsoni boʻlgan duduqlanish, til rivojlanmaganligi, oʻqish va yozuvdagi nuqson va boshqa sabablarni oʻrganuvchi va ularni korreksiya qiluvchi kasalliklarini oʻrganuvchi soha. Bu soha tibbiyot va pedagogika birlashmasidan hosil boʻlib, tibbiyot tomondan til va ogʻiz organidagi kasalliklarni yaʼni rivojlanishini oʻrgansa, pedagogik jihatdan maktab va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan emas balki psixologiya bilan ham bogʻliq. Bu sohada muammolar koʻproq maktab yoshidagi bolalarda uchraydi va ularga turli xil tashxislar qoʻyiladi, shu jarayonda bolalar bilan boʻlayotgan muloqotda avvalo ularning psixologiyasini bilib olish talab qiladi, chunki imkoniyati cheklangan bolalar psixologiyasi juda ham nozik boʻladi. Unday bolalar bilan til topishish ularni kasallikka oid qanday muammolar qiynayotganini bilish uchun ham psixologiya juda ham zarur. Bu borada oliy taʼlim muassasalarida logopediya sohasida oʻqiyotgan talabalarga maxsus psixologiya fanlari oʻqitilib talabalarni ana shunday muhitga tayyorlab boriadi va ularga turli yoshdagi bolalarning psixologiyasi haqida maʼlumotlar beriladi.

Nutqning fonetik-fonematik tomondan rivojlanmaganligi bu tovushlarni talaffuz etish va idrok qilish jarayonidagi kamchiliklar natijasida bolalarda ona tilidagi tovushlarni talaffuz qilish tizimi shakllanishining buzilishidir.

Bunday nutq kamchiligida nutqning idrok va talaffuz qilish nuqsonlariga asoslangan fonetik-fonematik tomonining buzilishi birinchi oʻrinda turadi. Shu bilan birga baʼzi bolalarda leksika-grammatik taraqqiyotida yaqqol ifodalanmagan orqada qolish hollari ham kuzatilishi mumkin. Bu toifadagi bolalarga xos xususiyat

artikulasion yoki akustik belgilariga ko'ra farq qiladigan tovushlarning shakllanish jarayonining tugallanmagan bo'lishidir. Bu holda bola nutqida differentsiallanmagan tovushlar bo'lishi tovushlarni almashtirish, nutqda ularni qo'llamaslik, ko'plab tovushlarni buzib talaffuz qilish, shuningdek tovushlarni eshitishga ko'ra yetarli farqlamaslik kuzatiladi.

Eshitish va nutq bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir, chunki uning eshitish organining rivojlanishi uchun uning eshitish organlarining qobiliyati normal bo'lishi kerak, ya'ni u eshitgan so'zlarni takrorlaydi, natijada u rivojlanadi. Turli nutq buzilishlarining rivojlanishini oldindan aniqlash katta ahamiyatga egadir. Agarda nutqiy nuqson bolaning maktabga kelgan vaqtida ilk bor aniqlansa, u holda uni tuzatish qiyinchiliklari tuzatilib, o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqi rivojlanishda orqada qolgan bolalar va nutqning shakllanishning buzilishi bir nechta darajalarini o'z ichiga oladi ya'ni uchta darajasida ko'rishimiz mumkin.

1. Nutqning bo'lmasligi bo'ladi.

Ular ikki-uch so'zdan iborat gaplardan foydalaniladilar. Lug'at boyligi bilan xarakterlanadi. Bunday bolalar nutqsiz bolalardir. 4-6 yoshdagi bunday bolalarning lug'at boyligi kambag'al, noaniq bo'ladi. Nutqi tovushga taqlit qilish, tovushlar kompleksi bilan chegaralangan bo'ladi. Narsa va hidisalarni farq qilmagan holda ifodalash, so'zlarning ko'p ma'noga ega bo'lmasligi xarakterli xususiyat hisoblanadi. Tovushlar talaffuzida turg'unlik bo'lmaydi, tovushlar bir-biri bilan almashtiriladi, fonematik o'quv buzilgan bo'ladi. Nutq to'liq rivojlanmaganligining bu darajasiga ega bolalar uchun tovushlar analizi bo'yicha berilgan topshiriqlar tushunarsiz bo'ladi.

2. Dastlabki keng qo'llaniladigan nutqning bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Bolalar oddiy jumalardan foydalana biladilar, ma'lum lug'at boyligiga ega bo'ladilar. Ular narsalar, hodisalar, alohida belgilar nomini ajrata oladilar. Lekin bunday bolalarda nutqning qo'pol darajada rivojlanmaganligi yaqqol ifodalangan shu yoshga mos keladigan normadan kam bo'ladi. Umumlashtiruvchi so'zlarni (mebel, kiyim, mevalar, sabzavot, va boshqalarni) bilmasligi kuzatiladi. Harakat, belgini bildiruvchi so'zlardan foydalanishda qiyinchiliklar kuzatiladi, predmetnomini, rangini, shaklini, o'lchaminiva boshqa belgilarni bilmaydilar.

3. Nutqida leksik-grammatik jihatdan rivojlanmaganlik elementlar kuzatiladi.

Bolalar nutqga ega bo'lganda kishilar bilan aloqa bog'lay oladilar, lekin buni ota-ona (tarbiyachi) ishtirokida, ularning muayyan tushuntirishlari yordamida bajariladi. Nutqiy muommosi bor bolalar o'z fikrlarini ifoda etishga qiynalishadi va manashunday holatlarda logopedlar maxsus terapiyalar ko'rsatishadi. Bunday kasalliklar juda ko'p omillar orqali yuzaga keladi ya'ni sabablari mavjud. Bularga misol tariqasida:

1. Embrion rivojlanishi davridagi turli xil patologiyalar.

2. Homiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasalliklar, jarohatlar, qonning rezus-faktorga mos kelmasligi.

3. Tugʻriq vaqtidagi shikaslanish va asfiksiya.
4. Bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (meningit, ensefalit).
5. Miyaning chayqalishi bilan birga sodir boʻladigan bosh jarohatlari.
6. Nasliy faktorlar. Bunday hollarda nutq buzilishlari umumiy nerv sistemasi harakat kamchiliklari bilan birga kuzatiladi.
7. Ijtimoiy-maishiy sharoitning yomonligi. Bu holat mikroijtimoiy qarovsizlikka, vegetative disfunktsiyaga, emosional-irodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab boʻladi.

Maktab va maktabgacha yoshidagi bolalarda nutqiy nuqsonlarni erta aniqlash va oʻz vaqtida tashxis qoʻyish bolalardagi kasalliklarni qisman yokida butkul halos etishi mumkin. Bolani erta tashxis qilib oʻrganishning muhimligi shundaki, u orqali bolani korreksion taʼlimga vaqtida yoʻnaltirib, ikkilamchi nuqsonlarni paydo boʻlishini oldini olishi mumkin va yana shuni takidlab oʻtish kerakki maktabgacha yoshdagi bolalar bilan koʻroq ochiq muloqot qilish ularni oʻz fikrlarini eshitish bolalar uchun juda ham foydali hisoblanadi yaʼni olib borilayotgan muloqot tufayli bolada qanday nuqsonli kasallik borligini bilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" Sh.A.Doʻstmuxamedova, Z. T. Nishonova, Toshkent-2013
2. F.R.Qodirova, R.M.Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent-2006.
3. Boʻlajak tarbiyachipedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakillantirish texnologiyalari. Toshkent-2022.
4. T.S. Sarvar Rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalarni oʻrganish va tasviriy faoliyat jarayonida nutqini rivojlantirish.
5. Oribboyeva, D. (2024). BULLING OʻSMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(12), 115–117. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/58095>
6. Д. Д. Ориббоева, Н. Б. Каримова Психологик тадқиқотларда буллинг муммосининг гендер тахлили // Science and Education. 2025. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologik-tad-i-otlarda-bulling-mummosining-gender-tahlili> (дата обращения: 13.10.2025).
7. Д. Д. Ориббоева, М. М. Адашалиева ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ // «Ёш олимлар ахборотномаси» – «Вестник молодых ученых». 2025. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-vnedreniya-i-razvitiya-inklyuzivnogo-obrazovaniya-v-stranax-tsentrальной-азии>

razvitiya-inklyuzivnogo-obrazovaniya-v-stranah-tsentralnoy-azii (дата обращения: 13.10.2025).

8. Орифбоева, Д. Д., & СРЕДНЕЙ, О. ШКОЛЕ//Форум молодых ученых. 2017.№ 6 (10). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatel'nogo-protssessa-v-sredney-shkole> (дата обращения: 31.03. 2025).

9. Oribboyeva, D. D., & Assertiv, S. B. Q. G. A. (2024). xulq shakllanishining o'ziga xosligi. Science and Education, 2.

10. Orifboeva, D. D. (2016). O'QITISH FAOLIYATI JARAYONIDA Stressni oldini olish. NovaInfo. Ru, 3(41), 217-220.